

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.I.111.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

UZAQOV JAMSHID NORBOYEVICH

**MINTAQADA ZIYORAT TURIZMI SALOHIYATINI OSHIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI
MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)

Content of abstract dissertation of the Doctor of philosophy (PhD)

Uzaqov Jamshid Norboyevich

Mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish mexanizmini takomillashtirish
(Qashqadaryo viloyati misolida).....3

Узаков Джамшид Норбоевич

Совершенствование механизма повышения потенциала паломнического
туризма в регионе (на примере Кашкадарьинской области)..... 29

Uzakov Jamshid Norboevich

Improving the mechanism of increasing the potential of pilgrimage tourism in
the region (on example of Kashkadarya region).....57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....65

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.I.111.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

UZAQOV JAMSHID NORBOYEVICH

**MINTAQADA ZIYORAT TURIZMI SALOHIYATINI OSHIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI
MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4217 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qmii.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashev Raxmatulla Xidirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Abdurashid Majidovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo‘chqorov G‘aybulla Fayzullaevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi., professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/29.12.2022.I.111.01 raqamli Ilmiy kengashning “_____” _____ 2024-yil soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri Mustaqillik ko‘chasi 226-uy. Tel: 75 221-09-23, faks: 75 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz, kiei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri Mustaqillik ko‘chasi 225-uy. Tel: 75 221-09-23, e-mail: qmii@qmii.uz, kiei_info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “_____” _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.N.Xamrayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

N.A.Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.f.d.,
dotsent

Sh.T.Xasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi o‘rinbosari,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy hayotida ziyorat turizmi tarmog‘i muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Uning dunyo miqyosidagi o‘rni va roli yildan-yilga o‘zib borayotgan bo‘lib, bugun ushbu soha dunyo aholisining ko‘plab qismini o‘z doirasida birlashtirdi. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT)ning ma‘lumotlariga ko‘ra, “1950-yilda xalqaro turistlar soni 25 million, 1980-yilda 278 million, 1995-yilda 528 million va 2017-yilda 1 milliard 400 million kishini tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2030-yilga borib 1 milliard 800 million kishiga yetishi bashorat qilinmoqda”¹. Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO)ning qayd etishicha, 2020-yilda turistlar soni 364,3 million kishini (oldingi yilga nisbatan 74 % ga kamaygan), turistik xizmatlar eksportidan ko‘rilgan zarar 1,3 trillion AQSh dollariga etgan va bu 2009-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sababli ko‘rilgan zarardan 11 baravar ortiq bo‘lgan². Oxirgi vaqtlarda turistlar va shu jumladan, ziyoratchilarning sa’y-harakatlaridagi tub o‘zgarishlarni inobatga olgan holda mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish zarurati alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda ziyorat turizmini tashkil qilish va ularning salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar tarkibida mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari va shakllantirish bosqichlari, alomatlari, amal qilish samaradorligi, boshqaruv organlari tuzilishi, tarmoqda qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, biznes hamkorlar bilan vertikal va gorizontal aloqalar o‘rnatish, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va xizmatlarni yaratish kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekistonda turizmning salohiyatli va istiqbolli turlaridan biri ziyorat turizmi hisoblanadi. Uning o‘ziga xos xususiyati komil insonni ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda jahondagi turistik obyektlarning 90 foizidan ortig‘i bevosita yoki bilvosita sig‘inish yoki din bilan aloqador³. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2021-yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e‘tibor beriladi”⁴, deb ta’kidladilar. Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun xorijda sinalgan ziyorat turizmini rivojlantirish hamda mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy-tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

¹ UNWTO Tourism Highlights 2017 Edition.

² UNWTO, COVID-19 and Tourism 2020, A year in review, January 2021 https://webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com/s3fs-public/2020-12/2020_Year_in_Review_0.pdf

³ Папирян Г.А. Международные экономические отношения: маркетинг в туризме / Г.А.Папирян. – М.: Финансы и статистика, 2000. – С. 201.

⁴ Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4056> [29.12.2020].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024 yil 12 yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-martdagi PQ-112-son “Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 28-noyabrdagi PQ-376-son “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20-son “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo mamlakatlari va O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini shakllantirish, rivojlantirish hamda ulardan foydalanish muammolariga ko‘plab fundamental va amaliy tadqiqotlar bag‘ishlangan. Xorijiy olimlardan N.Leyper, M.Tamma, U.Martini, M.Frank, S.Vahab va L.Krampon, L.Dyuer va Ch.Kim, E.Asopardi, T.Mixalich, D.Buxalis⁵ hamda MDH davlatlari olimlaridan M.A.Morozov, S.S.Nikolayev, T.A.Sebekina, A.Zorin, T.V.Lvova⁶ va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ushbu masala

⁵ Leiper N. The framework of tourism: Towards a definition of tourism, tourist, and the tourist industry // Annals of Tourism Research, № 6(4), 1979. P. 390-407; Michelle Tamma, Destinazioni: concorrenza tra luoghi o tra sistemi di offerta? In Pechlaner H. e Weiermair K. (a cura di), Destination Management, Touring Club Italiano 2000, 50 p; Martini Umberto. Management dei sistemi territoriali: Gestione e marketing delle destinazioni Turistiche. Vol. 27. G Giappichelli Editore, 2015; Franch Mariangela, et al. "4L tourism (landscape, leisure, learning and limit): responding to new motivations and expectations of tourists to improve the competitiveness of Alpine destinations in a sustainable way." Tourism review 63.1 (2008): 4-14; Wahab S., Crampon., L.J., & Rothfield, L.M. (1976). Tourism Marketing. London: Tourism International Press; Dwyer, Larry, and Chulwon Kim. "Destination Competitiveness: determinants and indicators." Current Issues in Tourism, (2003) 6 (5): 369-414; Azzopardi, E., 2011. The international competitiveness of Malta as a tourist destination. Available from OpenAIR@RGU. [online]. Available from: <http://openair.rgu.ac.uk>; Mihalic, T., 2000. Environmental management of a tourist destination: a factor of tourism competitiveness. Tourism Management, 21(1), pp. 65-78; Buhalis D. Marketing the competitive destination of the future // Tourism Management. 2000. № 21 (1). P. 97-116.

⁶ Морозов М.А. Дестинация – важнейший элемент туризма / М.А.Морозов, О.Коль. Туризм: практика, проблемы, перспективы. – 1998. – № 1. – С. 9.; Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского пространства в регионе: (На прим. Санкт-Петербурга и Ленингр. обл.): автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / С.-Петерб. гос. ун-т экономики и финансов. – СПб., 2000. – 16 с.; Себекина Т.А. Формирование комплекса продвижения туристских услуг

keng yoritilgan. Ayniqsa, yangi zelandiyalik olim N.Leyper tomonidan yaratilgan turistik destinasiyaning tizimli modeli e'tiborga molik.

Ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish muammosining ayrim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga mamlakatimizning A.A.Eshtayev, Z.B.Navro'zzoda, A.M.Abduvohidov, M.T.Alimova, A.N.Norchayev, Y.V.Golisheva, X.F.Ochilova, M.T.Aliyeva, S.Nurmatova, S.R.Safayeva, B.X.To'rayev, O.H.Hamidov singari olimlari munosib hissa qo'shdilar⁷.

Mazkur ilmiy ishlarni tavsiflovchi o'ziga xoslik shundaki, aksariyat mualliflar uning asosiy funksional maqsadi sifatida ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlari va turizm mahsulotiga talabni ta'minlash nuqtai nazaridan e'tibor qaratgan va ko'rib chiqqan holda, ziyorat turizmi salohiyati tushunchasiga turli xil ma'nolarni kiritadilar. Ziyorat turizmi salohiyatidan foydalanish va rivojlantirishga bag'ishlangan ko'plab ishlarga qaramay, turli tavsif, turli inqirozli hodisalar, jumladan, koronavirus pandemiyasi oqibatlari bilan bog'liq o'zaro aloqalarini ko'rsatuvchi jihatlar nuqtai nazaridan ularning yanada rivojlanishiga yondashuvlar, shuningdek bunday murakkab sharoitlarda ziyorat turizmining rivojlanishi va uning salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni modellashtirish mavjud emas, bu esa dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini asoslab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan ITD–2 “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatni shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-texnika loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

дестинации (на примере Камчатки): //Автореферат кандидата экономических наук. [Электронный ресурс]. – Москва.2006. - Режим доступа: <http://www.dissercat.com/content/formirovanie-kompleksa-prodvizheniya-turistskikh-uslug-destinatsii-na-primere-kamchatki>; Зорин А., Зорин И. Дестинация. – М., РМАТ, 2009. С.26; Львова Т.В. Влияние качества туристских услуг на экономику дестинации (на примере города-курорта Сочи): автореф. дисс. ... канд. экон. наук. – Сочи, 2011. – 26 с.

⁷ Eshtayev A.A. O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. (Monografiya) – Samarqand: “Ipak yo'li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. – B. 8; Navruz-Zoda Z.B. turistik hududlar negizida ziyorat klasterlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: Iqt. fan. bo'y. fals. dok. diss. ... avtoref. – Buxoro, 2021. – B. 57; Abduvohidov A.M., Umirova D.S., Abriyev Z.S. Turizm rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma. – T.:TDIU, 2019. – 43 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. - 265 b.; Голышева Е.В. Совершенствование организаци и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Т., 2012. – 25 с.; Очиллова Ф.М., Жалолитдинова Х., Нурматова С. Туризм в Узбекистане после COVID-19. //Научно-электронный журнал “Экономические и инновационные технологии”, 2021. - № 1 (январь-февраль). – С. 333-341; Safarova N.N. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish: Iqt. fan. dok ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управления региональным туризмом: Автореф. дисс. ... докт. экон. наук. – Т., 2011. – 52 с.; Hamidov O.H. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss. ... avtoreferati. – Samarqand, 2017. – B. 7.

mintaqa ziyorat turizmi salohiyati tushunchasining mohiyati va uni oshirish vazifalarining ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlarini tahlil qilish va aniqlashtirish;

mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish mexanizmlarini yoritib berish;

Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini oshirishning hozirgi holati va uning samaradorligini baholash muammolarini aniqlash;

Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini oshirishning respublika va mintqa iqtisodiyoti rivojiga qo‘shgan hissasini tahlil qilish;

mintaqa ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishni amalga oshirishni taklif etish;

mintaqada ziyorat turizmining innovatsion rivojlantirish shakllarini tadqiq etish;

Qashqadaryo viloyatidagi ziyoratgohlar negizida ixtisoslashgan ziyorat turizmi klasterini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash;

omillar ta‘sirini modellashtirish va Qashqadaryoning ziyorat turizmi salohiyatini oshirishni prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo mintaqasining turizm iqtisodiyoti va ziyorat turizm obyektlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish vositalarini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash jarayonlarida yuzaga keluvchi tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv munosabatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, modellashtirish, taqqoslash, statistik ma‘lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “ziyosat turizmi salohiyati” tushunchasiga oid ilmiy qarashlar hamda konseptual qoidalar yoritib berilgan bo‘lib, bu o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta‘sir qiluvchi turli xil elementlardan tashkil topgan, uning murakkab, uyushgan va tizimli tabiati haqidagi ilmiy nuqtai nazarni, aynan ziyorat turizmi salohiyati sohasi uchun muhim ahamiyatga egaligini, keyingi rivojlanish obyekti turiga va undan foydalaniladigan vazifalarga muvofiq aniq tarkibning to‘liqligiga bog‘liq ekanligi asoslangan;

mintaqa ziyorat turizmi salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvi hududning ziyoratbop geografik joylashuvi va tashkil qilish xususiyatlariga ko‘ra takomillashtirilib, unga muvofiq ziyorat turizmi salohiyati reyting bali aniqlandi va “yuqori” ($tzzo - turizm\ ziyoratbop\ ziyorat\ obyekti \geq 86,1$), “o‘rta” ($jtzh - jozibador\ turistik\ ziyoratgoh\ hudud \leq 79,0$), “past” ($dstzj - diqqatga\ sazovor\ turizm\ ziyorat\ joyi \leq 67,0$) va “juda past” ($mzm - muqaddas\ ziyorat\ maskani \leq 40,1$) darajalari asoslangan;

mintaqa ziyorat turizmi salohiyatini klasterlash orqali “e-ziyorraturizm” elektron platformasini tashkil etishda turizm ziyoratbop ziyorat hududlarining “aqli ziyorat turistik hudud modeli”ni shakllantirish va davlat-xususiy sheriklik negizida ziyorat turizmini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan xarajatlarni

qoplab berish tartibini joriy etish orqali ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish taklif etilgan;

Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirishda ko‘p omilli ekonometrik modellardan foydalanish orqali 2029-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi turlari va uning industriyasi shakllanishi xususiyatlari tizimli tahlil qilingan;

Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini davlat tomonidan tartibga solishning institusiional mexanizmlari takomillashtirilgan;

Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar baholangan;

ziyosat turizmi salohiyatining Qashqadaryo mintaqasi iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilingan;

Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish shakllari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar, tahlil usullari va ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va hisoblar matematik-statistika usullari yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Dissertatsiya ishini tayyorlash jarayonida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xorijlik yetakchi iqtisodchi olimlarning mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha maqsadli dasturlar va yo‘l xaritalarini shakllantirish hamda nazariy bilimlarni boyitish imkonini beradi.

Amaliy ahamiyati nuqtai nazaridan mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘nalishlarida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi hamda Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasining faoliyatida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “ziyosat turizmi salohiyati” tushunchasiga oid ilmiy qarashlar hamda konseptual qoidalar yoritib berilgan bo‘lib, bu o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir qiluvchi turli xil elementlardan tashkil topgan, uning murakkab, uyushgan va tizimli tabiati haqidagi ilmiy nuqtai nazarning aynan

ziyosat turizmi salohiyati sohasi uchun muhim ahamiyatga egaligini, keyingi rivojlanish obyekti turiga va undan foydalaniladigan vazifalarga muvofiq aniq tarkibning to'liqligiga bog'liq ekanligini asoslovchi qarashlardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-martdagi 112-son "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlashda va "Qashqadaryo viloyatini 2024–2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda Qashqadaryo viloyat hududiy turizm boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (Qashqadaryo viloyat turizm boshqarmasining 2024-yil 21-avgustdagi 02-10/628-son ma'lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo mintaqasida mavjud bo'lgan turizm ziyosatbop ziyosat obyektlari, diqqatga sazovor turizm ziyosat joylari, muqaddas ziyosat maskanlari va jozibador turistik ziyosatgoh hududlarning real ziyosat turizmi salohiyati darajasini ekspert usulida aniqlash va ziyosat turizmi klasterini tuzishga munosib ziyosatgohlarni tanlab olish yo'li bilan hududlarda ziyosatgohlarni rivojlantirish imkoniyatini bergan;

mintaqa ziyosat turizmi salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvi hududning ziyosatbop geografik joylashuvi va tashkil qilish xususiyatlariga ko'ra takomillashtirilib, unga muvofiq ziyosat turizmi salohiyati reyting bali aniqlandi va "yuqori" (tzzo – turizm ziyosatbop ziyosat obyekti $\geq 86,1$), "o'rta" (jtzh – jozibador turistik ziyosatgoh hudud $\leq 79,0$), "past" (dstzj – diqqatga sazovor turizm ziyosat joyi $\leq 67,0$) va "juda past" (mzm – muqaddas ziyosat maskani $\leq 40,1$) darajalarini oshirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga 4a-ilova-"2023-yilda turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda e'tiborga olingan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrdagi PQ-389-son "Qashqadaryo viloyatini 2024–2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 201-son "2022–2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan hamda Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (Qashqadaryo viloyat turizm boshqarmasining 2024-yil 21-avgustdagi 02-10/628-son ma'lumotnomasi). Ilmiy takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan respublikada turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 27-avgustdagi 03-12-17-5572-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida ziyosat turizmi salohiyatini baholash ziyosat turizmining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirish, xususan aholining reproduktiv salomatligida ijobiy o'zgarishlarga

erishish, iqtisodiy nuqtai nazardan ziyoratchilarning ziyorat turizmi salohiyati reytingi ziyoratchilarning yangi segmentini shakllantirish, ya'ni ziyorat turizmi maskanlarini to'g'ri tanlash orqali ziyoratchilar sonini ko'paytirish imkoni yaratilgan;

mintaqa ziyorat turizmi salohiyatini klasterlash orqali "e-ziyoratturizm" elektron platformasini tashkil etishda turizm ziyoratbop ziyorat hududlarining "aqlli ziyorat turistik hudud modeli"ni shakllantirish va davlat-xususiy sheriklik negizida ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan xarajatlarni qoplab berish tartibini joriy etish orqali ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridagi 4a-ilovaga ko'ra "2023-yilda turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda e'tiborga olingan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda PQ-389-son "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 201-son "2022–2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan hamda Qashqadaryo viloyat turizm boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (Qashqadaryo viloyat turizm boshqarmasining 2024-yil 21-avgustdagi 02-10/628-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ziyorat turizmi salohiyatini klasterlash orqali Qashqadaryo mintaqasining turli ziyoratbop maskanlarida "e-ziyoratturizm" elektron platformasini tashkil etish va "aqlli ziyorat turistik hudud modeli"ni shakllantirish hamda davlat-xususiy sheriklik negizida ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan xarajatlarni qoplab berish tartibini joriy etish orqali ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish imkoniyati yaratilgan;

Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirishda ko'p omilli ekonometrik modellardan foydalanish orqali 2029-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan Qashqadaryo viloyatini 2024–2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xarita"sini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda Qashqadaryo viloyat hududiy turizm boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (Qashqadaryo viloyat turizm boshqarmasining 2024-yil 2024-yil 21-avgustdagi 02-10/628-son ma'lumotnomasi), O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan respublikada turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 27-avgustdagi 03-12-17-5572-son ma'lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmining YHMdagi umumiy hissasi keyingi besh yillikda o'rtacha 11,7 foizga o'sib boradi va 2029-yilga borib, 2010-yil narxlar indeksi bo'yicha hisoblangan real qiymatida 1520,99 mln. so'mga

yetishi ta'minlanadi. Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmining salohiyati 2029-yilda 2023-yilga nisbatan 1,93 barobarga ortadi.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan 6 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, tarkibida 26 ta statistik va tahliliy jadval, 20 ta rasm va 5 ta ilovani qamrab olgan holda 182 betda bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish mexanizmining nazariy-uslubiy asoslari**" nomli birinchi bobida mintaqada ziyorat turizmi salohiyati tushunchasining mohiyati va uni oshirish vazifalari, mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish, ziyorat turizmi salohiyatidan foydalanish mexanizmining xususiyatlari va undan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar asoslab berilgan.

Islom turizm markazi islom turizmiga shunday ta'rif bergan: sayohat davomida islom qoidalariga amal qilingan holda amalga oshirilgan har qanday hodisa, uchrashuv, ziyorat islom turizmi, deb ataladi. Shuningdek, ushbu markazning ta'rifiga ko'ra, islom turizmi yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

- turli yo'nalishlarda sayohat qiluvchi musulmonlar;
- musulmon mamlakatlariga sayohat qiluvchi musulmonlar;
- islom tamoyillariga amal qilgan holda sayohat qilish;
- islom merosini o'rganish uchun sayohat qiluvchi musulmonlar;
- islom merosini o'rganish uchun sayohat qiluvchi musulmon bo'lmaganlar ⁸.

Mamlakatimizda ziyorat turizmining sanab o'tilgan barcha yo'nalishlarini rivojlantirish uchun imkoniyat mavjud. Shu bilan birga, ziyorat turizmi

⁸ Kessler K. Conceptualizing Mosque Tourism: A central feature of Islamic and Religious. International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage: Vol. 3., Iss. 2, Article 2. 2011

klasterlarini tashkil etish mamlakatimizda turizm sektorining iqtisodiy-ijtimoiy va innovatsion salohiyatini kengaytirish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ziyorat turizmi yanada rivojlanishini ta'minlash imkoniyatini beradi. Turistik klaster hududiy jihatdan yaqin joylashgan, faoliyati bevosita yoki bilvosita turizm bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari, davlat muassasalari, jamoatchilik tashkilotlarining yig'indisidan iborat bo'lib, ularning o'zaro hamkorligi va ta'sirining asosiy maqsadi joylashgan hududning innovatsiya salohiyatidan foydalangan va uni rivojlantirgan holda sifatli, raqobatbardosh turistik mahsulotni ishlab chiqishdan iboratdir.

“Ziyorat” (arabcha زيارة ziyara) so‘zidan olingan bo‘lib “tomosha qilish”, “ko‘rishga borish (kelish)” ma‘nolarni bildiradi. Musulmonlarda “ziyosat” – bu payg‘ambarlar qabri, diniy muqaddas joylarni ziyorat qilishdir⁹.

Ziyorat yoki safar qilishni tashqi va ichki turlarga ajratishni lozim topdik. Ziyorat yoki safar – haq tomonga yurish, vatan bo‘ylab qalban safar qilish, hayot olamiga kirib, hayotda uchraydigan barcha qiyinchilik hamda lazmatlarni ko‘ra bilish, his etishdir. Inson o‘z ichida sayohat qila olishi lozim. U o‘z tabiatini, jumladan, mijoz, fe‘l-atvori, istak-xohishlari, xarakteri, iroda va didini, sa‘y-harakat qilgan holda, ichki dunyosida safar qilib yaxshigina o‘rganishi lozim.

“Muqaddaslik” xususiyati deganda, biz ziyorat yoki safarni “sakral” yoxud muqaddas an‘ana bo‘lib qolgan diniy va dunyoviy marosim xususiyatiga ega ekanligini nazarda tutamiz. “Sayyorlik” xususiyati esa ziyoratchining mobilliligi, harakatchanligi yoki doimiy yashab turgan manzilidan uzoqlashib, safarda yurib turishini ifodalaydi. Ziyoratning muqaddaslik va sayyohlik xususiyatlari, o‘z navbatida, safarni ikki makonda: **insonning ichki dunyosida (qalbida)** va **muqaddas joylarda** amalga oshirishga undaydi. Ziyorat joyi yoxud “sajdagoh” ikki: a) inson qalbi; b) diniy va dunyoviy muqaddas joylar, narsalar, g‘oya va umumbashariy qadriyatlar shakllarida namoyon bo‘lishi mumkin.

Biz “muqaddas” tushunchasini “diniy” va “ilohiy” tushunchalardan xilmaxilligi hamda muqaddaslik insonning ichki psixik ”markaz”i va umuminsoniy madaniyat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langanlik g‘oyalariga tayangan holda, **muqaddaslik timsoli** tamoyili bo‘yicha ziyoratni ikki shaklini ajratishni tavsiya etamiz: 1. Ilohiy qadriyatlarga asoslanadigan **diniy ziyorat**. 2. Umumbashariy qadriyatlarga asoslanadigan **dunyoviy ziyorat**.

Sayohat ziyoratga nisbatan kengroq atamadir. Ziyorat sayohatning o‘nlab turidan faqat bir turi hisoblanadi. Ichki ziyorat sayohatga taalluqli bo‘lmasdan, faqat tashqi ziyorat uning tarkibiy qismiga kiradi. Ziyoratning sayohatdan quyidagi tafovutlarini qayd qilish mumkin:


- agar sayohatga barcha sayru tomosha turlari kirsa, ziyoratga faqat diniy rasm-rusumlarni bajarish bilan birga amalga oshiradigan safar turi kiradi;
- sayohatning obyekt sifatida barcha obidalar hisoblansa, ziyoratning obyektiga faqat muqaddaslikka xos bo‘lgan narsa yoki joylar kiradi;
- sayohatning subyekt sifatida barcha kishilar taalluqli bo‘lsa, ziyoratning subyektini diniy va dunyoviy e‘tiqodli kishilar tashkil qiladi;

⁹Зиярат. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Зиярат>.

- sayohat ko'ngilxushlik, qizg'in o'yinlar, hordiq chiqarish kabi sa'y-harakatlarni o'z ichiga olsa, ziyorat bunday xatti-harakatlardan xolis bo'lishi lozim.

Yuqorida bildirgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ziyoratga tor – faqat safar va sayohat ma'nosida qaramasdan, uni kengroq – serqirra, ikki tabiatli, ko'p darajali atama sifatida talqin qilib, bizning fikrimizcha, uch: “*sajda*”, “*ziyosat*” va “*haj*” tartib darajalarini ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ziyorat turizmi salohiyati uni tashkil etuvchi yuqoridagi salohiyatlardan tarkib topadi: tabiiy-resursli, tarixiy-madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy salohiyat (1-rasm).



1-rasm. Ziyorat turizmi salohiyatining asosiy tarkibi va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi¹⁰

Tabiiy-resursli salohiyat – kelib chiqishi tabiiy bo'lgan turizm-rekreasiya resurslari bilan ham, obyekt yoki hududga tashrif buyurishning eng yuqori darajasi bilan ham belgilanadi, bu darajadan ortib ketish turistlarning harakatlari natijasida yoki turizmga xizmat qiluvchi infratuzilma faoliyati natijasida geotizimning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar buzilishi va nomaqbul ekologik oqibatlariga olib keladi. Tarixiy-madaniy salohiyat madaniy-ma'rifiy turizm obyektlarining imkoniyatlari, ulardan foydalanish xususiyati, ahamiyati, semantik qiymati va auditoriyaga kirishuvchanligini yoritib beradi.

Iqtisodiyotni ijtimoiy sohasi sifatida ziyorat turizmini davlat tomonidan tartibga solish, bozor mexanizmlarining ishlashi uchun sharoitlarni ta'minlash maqsadida davlat organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va bozor sharoitlariga ta'siri sifatida tavsiflanishi mumkin. Davlat tomonidan tartibga solish jarayoni murakkab vazifa bo'lib, u iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, uning

¹⁰Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

qoidalarini asoslash, ushbu siyosatni amalga oshirish vositalari va usullarini tanlashni o'z ichiga oladi.

Ziyorat turizmi sohasini davlat tomonidan tartibga solish vositalarini ularni qo'llash sohalari bo'yicha quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin.

1. Iqtisodiy sohada – soliqni tartibga solish, ziyorat turizmini rivojlantirish dasturlarini maqsadli byudjetdan moliyalashtirish, ziyorat turizmiga investisiya kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, inson kapitaliga investisiyalarni ko'paytirish, ziyorat turizmi va rekreasion turdagi maxsus iqtisodiy zonalarni yaratish.

2. Huquqiy sohada – normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ziyorat turizmi sohasida tasniflash, standartlashtirish, litsenziyalash metodologiyasini ishlab chiqish, bojxona tartibga solishi, mamlakatga kirish, chiqish va vaqtincha bo'lish qoidalarini belgilash, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish, turistlar xavfsizligini ta'minlashdir.

3. Ijtimoiy sohada – aniq manzilli ziyorat turizmi dasturlarini ishlab chiqish, turistlar bo'ladigan joylarda mahalliy aholi bandligi muammosini hal qilish, ziyorat turizmi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashda qatnashish.

4. Ziyorat turizmini tashkil qilish sohasida – jahon ziyorat turizmi bozorida mamlakat nufuzini shakllantirish, ziyorat turizmi mahsulotini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishga ko'maklashish, xalqaro ziyorat turizmi dasturlarida ishtirok etish, ziyorat turizmi infratuzilmasidan ko'p maqsadli foydalanish uchun sharoitlar yaratish, ziyorat turizmini rivojlantirish sohasida davlat va xususiy sektor faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-tahlil bazasini shakllantirish, ziyorat turizmi sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish.

Qashqadaryo mintaqasining ziyorat turizmini o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollari belgilash maqsadida diniy amallar bilan bog'liq marosimlar va tadbirlarda qatnashish yoki ularni o'rganish maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda, turli din va aholi qatlamlari vakillarini nafaqat ziyorat, balki ular tashrif buyurgan joylarning tarixiy, madaniy va badiiy qadriyatlarini bilan tanishtirish imkoniyatini beradi.

Ziyorat turizmi salohiyati – ziyorat turizmi industriyasini rivojlantirish va uning faoliyatidan ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samara olish va ziyorat turizmining jalb etuvchanlik darajasini oshirish imkoniyatlari mavjudligidir; ziyorat turizmi salohiyati – ziyorat turizmi faoliyatini tashkil qilish maqsadida tashkilot tasarrufida bo'lgan resurslar yig'indisi.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini oshirishning hozirgi holati va uning samaradorligini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qashqadaryo iqtisodiyotiga turizmning qo'shgan hissasi tahlili, mintaqada ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirishning hozirgi holati va muammolari, mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish tahlili ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2019-yilda 105221 nafar ziyoratchi tashrif buyurgan. Shundan davlatimiz fuqarolari 54,6 foizni, MDH ziyoratchilari 12,2 foizni va uzoq xorij davlatlari ziyoratchilari 33,2 foizni tashkil etdi. Shu jumladan, Qashqadaryo mintaqasida mutanosib ravishda 53,2, 8,4 va 38,4 foizlarni tashkil

etib, jami tashrif buyurgan ziyoratchilarning Qashqadaryodagi ulushi 2,5 foizga to‘g‘ri keladi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatiga safar maqsadlari bo‘yicha mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilarning joylashish holati¹¹

T/R	Ziyorat turizmi turi	Jami	Shu jumladan		
			O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha	MDH mamlakatlaridan	Uzoq xorij davlatlaridan
2019 yil					
1.	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha <i>shu jumladan:</i>	105221	57452	12881	34888
2.	Qashqadaryo viloyatida	2661	1416	224	1021
–	<i>Tashrif buyuruvchi ziyoratchilarning Qashqadaryo viloyatidagi ulushi (%) da</i>	2,5	2,5	1,7	2,9
2020 yil					
1.	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha <i>shu jumladan:</i>	42182	28022	4626	9534
2.	Qashqadaryo viloyatida	224	177	47	0
–	<i>Tashrif buyuruvchi ziyoratchilarning Qashqadaryo viloyatidagi ulushi (%) da</i>	0,5	0,6	1,0	0
2021 yil					
1.	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha <i>shu jumladan:</i>	27045	19270	1988	5787
2.	Qashqadaryo viloyatida	1151	1065	10	76
–	<i>Tashrif buyuruvchi ziyoratchilarning Qashqadaryo viloyatidagi ulushi (%) da</i>	4,3	5,5	0,5	1,3
2022 yil					
1.	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha <i>shu jumladan:</i>	29754	21197	2189	6368
